



KORRUPSIYA: PAYDO BO'LISH OMILLARI, TADQIQ, TAHLIL

Mirsulton Abbosov

TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5576573>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-oktabr 2021

Ma'qullandi: 10- oktabr 2021

Chop etildi: 15- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash konsepsiyasi, mahalliychilik, nepotizm, byurokratik proteksionizm

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, uning paydo bo'lish omillari, turlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar, bartaraf etish shart-sharoiti xususida fikr yuritiladi.

Korrupsiya atamasi lotincha «corruptio» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «buzish» va «pora bilan sotib olish» degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu ikki so'z korrupsiyaning mazmun-mohiyatini belgilab beradi [1, B-368]. Korrupsiya dastlab qadimgi Rim imperiyasi qonunchiligida «corrumpere» deya nomlangan bo'lib, sudyaga nisbatan qilingan har qanday noqonuniy harakat korrupsiya deb tushunilgan. Italiyalik faylasuf Nikkolo Makiavellining fikricha, korrupsiya – jamiyat imkoniyatlarini o'z ehtiyoji yo'lida ishlatishdir[2, B-27]. U o'zining «Hukmdor» asarida shunday deya ta'kidlaydi: «Yordamchi nimaga arzishini aniq bilishning birgina yo'li bor. Agar u hukmdordan ko'ra ko'proq o'zi haqida qayg'ursa va har qanday ishda o'z nafini ko'zlasa, bilingki u hech qachon hukmdor uchun yaxshi xizmatkor bo'lmaydi va unga hech qachon ishonib bo'lmaydi»[3, B-149].

Korrupsiya XX asrning ikkunchi yarmidan boshlab global muammoga aylandi. O'sha davrda «Finansial Times» gazetasi dunyo aholisining huquqiy ongini oshirish maqsadida 1994-yil 31-dekabrda 1995-yilni «Korrupsiyaga qarshi kurash yili» deb e'lon qilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham 9-dekabrni «Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni» deb belgiladi va bu kun 2004-yildan beri nishonlab kelinadi. Korrupsiyaning davlat, jamiyat, inson manfaatlariga tahdidi haqida so'z yuritilar ekan, S. Rouz-Akkerman shunday deydi: «Korrupsion munosabatlarda pora oluvchi va pora beruvchining ikkalasi ham yutadi, ammo davlat zarar ko'radi» [4, B-296]. Advokat olim A. Kirpichnikov korrupsiya haqida shunday deydi: «Korrupsiya – hokimiyatning korroziasidir. Zang metallni qanday yemirsa, korrupsiya ham davlat apparatini shunday parchalaydi va



jamiyatning normal axloqiy asoslarini yemiradi»[5, B-68].

Korrupsiyaga yana bir aniq ta'rifni D. Gigauri, V. Kovalenko berishadi: «Korrupsiya byurokratik apparatning ishga tushishi oqibatidagi nojo'ya ta'sir bo'lib, uning harakatlari mamlakat aholisining munosib hayotini ta'minlashga qaratilish o'rniga u ko'pincha yashirin lobbi va xususiy manfaatlarni ilgari surish mexanizmi sifatida xizmat qiladi» [6, B-30-36].

Bizning fikrimizcha, korrupsiya oddiy o'g'irlik yo mansabni suiiste'mol qilishgina emas, balki chuqur ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy ildizlarga ega tizimli jarayondir, u jamiyatdagi ijtimoiy adolat hamda huquqiy ongga putur yetkazuvchi omildir. Biz birinchi navbatda tushunishimiz kerakki, korrupsiya faqatgina davlat idoralarida bo'lmaydi, u biznesda, axborot tizimida, maishiy xizmat ko'rsatishsohasi va hokazolarda bo'ladi.

Biz sharq va g'arb olimlarining fikrlariga qo'shilgan holda ularni umumlashtirib korrupsiyani quyidagi turlarga bo'lamiz.

1. Mansab vakolatini suiiste'mol qiluvchi:

- davlat korrupsiyasi (davlat mansabdorlari sodir etadigan korrupsiya);
- tijoratdagi korrupsiya (tijorat firmalari mansabdorlari sodir etadigan korrupsiya);
- siyosiy korrupsiya (mansabdor siyosatchilar sodir etadigan korrupsiya).

2. Korrupsiyaviy munosabatlarda tashabbuskorlik qiluvchi:

- mansabdor istagi bilan so'rab olish (tovlamachilik bilan);
- arizachining pora berishi.

3. Pora beruvchilarga ko'ra:

- individual pora (fuqaro beradi);
- tadbirkorlik porasi (legal firmalar beradi);
- jinoiy pora (kriminal tadbirkorlar, masalan, narkomafiya, qurol-yarog' yo odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy to'dalar beradi).

4. Poraxo'rnining korrupsiyadan oladigan foydasiga qarab:

- mulk ko'rinishida;
- xizmat ko'rsatish ko'rinishida (sizdan ugina, bizdan bu gina, nepotizm).

5. Korrupsiya munosabatlarining markazlashuv darajasiga qarab:

- markazlashmagan korrupsiya (har bir pora beruvchi o'z tashabbusi bilan munosabatga kirishadi);
- «pastdan tepaga» markazlashgan korrupsiya (mansabdor porani olib, yuqoridagi mansabdor bilan baham ko'radi);
- «tepadan pastga» markazlashgan korrupsiya (mansabdor porani olib, ma'lum bir qismini o'z qo'l ostidagilarga beradi).

6. Korrupsiyaviy munosabatlarning tarqalish darajasiga qarab:

- maishiy korrupsiya;
- yuqori darajadagi korrupsiya;
- xalqaro korrupsiya.

7. Korrupsiyaviy aloqalarning muntazamligiga qarab:

- epizodik korrupsiya, masalan, pasport olishdagi, armiyaga borishdagi korrupsiya va shu kabilar.



– tizimli korrupsiya;

– kleptokratiya (korrupsiya hokimiyatning ajralmas bo'g'ini bo'lib qolishi), bunga yaqqol misol – lobbizm.

Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar nima deganda ko'pchilik «moddiy yetishmovchilik» deya javob beradi. Mashhur xitoy faylasufi Sun Szinning bir gapi bor: «Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish talon-torojni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda davlat inqirozga uchraydi». Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni sanab o'tamiz:

Davlat xizmatchilarning kasbiy buzilishi (turmushdagi norozilik, xudbinlik, yengil pul topish istagi, vijdon sotilishi).

A. Smit va D. Rikardo asarlarida yaratilgan «iqtisodiy inson» modeli (ya'ni shaxsiy manfaat, xudbinlik, o'z ahvolini yaxshilashga doimiy intilish) [7, B-219].

Insondagi istaklarning o'zgaruvchanligi (shon istashi, oson daromad olishni xohlashi, jazodan va sharmandalikdan qo'rqish, muhtojlik, shoshqaloqlik, ilmsizlik va h.).

Qonunlarning nomukammalligi (kolliziya, bo'shliqlarning borligi).

Lobbizm, ya'ni mansabdorlarni sotib olishiga qaratilgan faoliyat.

Huquqiy ong va madaniyatning pastligi. Fuqarolik jamiyatining o'jizligi, hokimiyatning jamiyatdan ajralganligi.

Davlat boshqaruv institutlarining samarasizligi.

Sohalarda davlat aralashuvining keskin ko'payishi.

Eskicha boshqaruv tuzumidan yangisiga o'tishdagi mashaqqatlar.

Iqtisodiy tanazzul va siyosiy beqarorlik va h.

Keling, korrupsiyaning eng ko'p tarqalgan turlarini sanaymiz.

Byurokratik proteksionizm, ya'ni g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun mansabdorlarning til biriktirishi, «o'z guruhi»ni tuzishi.

Nepotizm – siyosatdagi va davlat boshqaruvidagi qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik.

Mahalliychilik – davlat manfaatlaridan ko'ra o'zi tug'ilgan (o'sgan) hududning manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga moyillik.

Bugungi kunga korrupsiyaning mingdan ortiq turi mavjud. Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish uchun quyidagi funksiyalarni yo'lga qo'yish darkor:

Korrupsiya jinoyatining determinantlarini o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash.

Korrupsiyaga qarshi kurash konsepsiyasini yaratish.

Davlatning iqtisodiyotga haddan oshiq aralashuviga chek qo'yish.

Hokimiyat ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shaffoflikni ta'minlash.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish.

Aholi nima uchun korrupsiya yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmayotgani, «barining tili bir» degan fikrning sababini bilish lozim. Korrupsiya haqida xabar bergan insonning xavfsizligi kafolatlanishi kerak.



Singapurda juda katta islohot o'tkazgan bosh vazir Li Kuan Yu shunday deydi: «Kurashni uch do'stingizni qilmishi uchun ozodlikdan mahrum qilishdan boshlang, siz nima uchunligini aniq bilasiz, ular ham nima uchunligini bilishadi. Men ikkita do'stimni qilmishi uchun ozodlikdan mahrum qildim, qolganlar hammasini o'zlari tushunib oldilar».

Butun dunyo korrupsiyaning global muammoligini tushunib yetdi, shu sababdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Korrupsiyaga qarshi konvensiyani qabul qildi.

O'zbekistonda ham «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning qabul qilishini bu illatga qarshi qaratilgan strategik qadam bo'ldi.

Qonun qog'ozda qolib ketmay hayotda ham ishlay boshlasa, targ'ib qilinsa, korrupsiyaning ko'rsatkichini kamaytirishga erishish mumkin.

O'zbekiston konstitutsiyasining 32-moddasida «Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi», deyilgan. «Korrupsiyaga qarshi kurashish

to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida va boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarda ochiqlik va shaffoflik, fuqarolarning huquq va erkinliklari ustuvorligi belgilangan. Bu tushunchalarni mamlakat aholisining ongiga singdirish kerak. Buning uchun biz OAVning erkinligini ta'minlashimiz darkor.

Korrupsiyaning oldini olishda eng samarali usul insonni yoshligidan korrupsiyaga murosasizlik ruhida tarbiyalashdir. Buning uchun ta'lim berayotgan o'qituvchilarning o'zida korrupsiyaga nisbatan ehtiyojni yo'qotish kerak. O'qituvchilar faqatgina dars o'tishi lozim, baholashda esa subyektiv omilni iloji boricha kamaytirish darkor. Yaponiya bosh vaziri Sindzo Abedan mamlakat bu qadar taraqqiy topganining siri nimada ekanligi so'ralganida, u shunday javob bergan ekan: «Biz o'qituvchilarga vazirning maoshini, diplomatlarning daxlsizligini va imperatorning hurmatini berdik». Mamlakat taraqqiyotida, demakki korrupsiyaga qarshi kurah borasida ham muallimlarning, ularning qo'lida ta'lim olgan avlodlarning ahamiyatini anglash uchun shu so'zlarning o'zi kifoya.

References:

1. Қобилов Ш. Р. Коррупция: сабаблари, шарт-шароитлари, оқибатлари ва олдини олиш йўллари. Монография / – Т.: Ўзбекистон ИИВ академияси, 2018.
2. Национальные и международные меры в борьбе против коррупции/ (Абашидзе А. Х.) («Юрист-международник», 2007, №2).
3. Макиавелли Н. Государь. М. 1990.
4. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствие, реформы // Пер. с англ. О. Алякринского – М. 2010.
5. Кирпичников А. Взятка и коррупция в России. Санкт-Петербург. 1997.
6. Гигаури Д., Коваленко В. Коррупция как угроза национальной безопасности государства и общества: политико-психологический анализ // Перспективы интеграции науки и практики. 2015. № 2. С. 30–36.